



**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA
MADANIY HAYOT**

Xurramova Ozoda Shuhrat qizi

Navoiy Davlat Universiteti Tarix Fakulteti 1 - kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr hududida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizim hamda madaniy hayotning rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mazkur davrda davlat boshqaruvi, savdo-iqtisodiy aloqalar, shaharsozlik, ilm-fan va san'at taraqqiyoti muhim o'rin egallagan. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish va madaniy uyg'onish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Temuriylar davri, Movarounnahr, iqtisodiy hayot, madaniyat, ilm-fan, savdo yo'llari, me'morchilik.*

Amir Temur qudratli davlat barpo etgach G'arbiy Yevropa hukumdorlari Usmonli turk imeriyasi hujumidan tashvishga tushib undan yordam so'raydi. "Shu maqsadni ko'zlagan Vizantiya imperatori Manuil II Paleologning dojlari (imperatorning o'zi o'sha kezlarda G'arbiy Evropa qirollari huzurida bo'lgan) Yildirim Boyazid tazyiqidan xalos etishni so'rab, Amir Temurga murojaat qilishadi va shu paytgacha turk sultoniga to'lab kelgan bojlarini bunday buyon Sohibqironga berajaklarini aytadilar. Kastiliya qiroli Genrix III va Frantsiya qiroli Karl VI o'z elchilarini, Rim papasi Bonifakiy IX bo'lsa o'z katolik missionerlarini shoshilinch Amir Temur huzuriga yo'lladilar¹. Bu yozishmalar jahon tarixshunosligi va manbashunosligida muhim o'rin egallaydi. "...bu nomalarning asl nusxa va tarjima variantlari hozirda Parij, Madrid va London kutubxonalarida saqlanib kelinadi. Bu haqda biz quyidagi tarixiy asarlardan bilib olsak bo'ladi"².

Ushbu ma'lumotlar Keren L. Amir Temur saltanati, Fransuz tilidan tarj. Va izohlar muallifi: B.Ermatov, Maxsus muharrir: X.Sulton; So'z boshi Lui Bazen. - T.: "Manaviyat", 1999, -224 bet. kitoblari ham bor. Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko'rsatadiki, ular o'zaro uzviy bog'langan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniyma'naviy yuksakligini yuzaga keltira olgan. Bulardan birinchi navbatda siyosiy- ijtimoiy omilni ko'rsatish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda tarqoq, o'zaro nizo va urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga bo'linib ketgan va kelgindi hukmronlar - mo'g'illar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan qutulishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalarining joriy etilishi, zo'ravonliklar, o'zboshimchaliklar kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishni ta'minladi.

¹ Ahmedov B. Temur.T. 1995 y

² Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati.T. 1996 y



Ikkinchi - iktisoliy omil - Movarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik, ishlab chiqarishni jadal rivojlanishga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada kator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchi - ma'naviy omil - avvalgi madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgan madaniy – ma'naviy boyliklardan, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag'iniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumii, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan: Musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy, boyliklaridan keng foydalanildi.

To'rtinchi - g'oyaviy omil - bu omil ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy hayotida katta rol o'ynaganligi uchun alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu XV asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf - xususan Naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoni, Abdu Xoliq G'ijduvoni ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan Naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV-XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol o'ynadi, ma'naviy o'zgarishlar ma'lum erkinlik uchun g'oyaviy asos, omil bo'lib xizmat qildi. Temur va temuriy shahzodalar, ko'p olim-fozillar, hunarmandlar naqshbandiya ta'limotidan ozuka oldilar, o'z faoliyatlari, ijodlari bilan uni har tomonlama boyitdilar. Amir Temur diplomatiyasining o'ziga xos tomonlaridan biri – u o'zining barcha murojaatlarida, hatto qat'iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qilgan. Ayrim yurtlar hukmdorlarining qo'pol shaklda, ba'zi hollarda jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga ham Sohibqiron hamma vaqt o'z fikrini aniq bayon qilgan holda madaniyat va odob bilan javob qilganini o'sha davrlardan meros bo'lib qolgan tarixiy xatlar orqali bilib olish qiyin emas.

Amir Temurning Fransiya qiroli Charl VI ga yo'llagan maktubida “Salom va tinchlik e'lon qilaman!”, degan so'zlar bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shu o'rinda Fransiya Amir Temur shaxsiga bo'lgan katta qiziqish haqida to'xtalib o'tsak. Fransuz sharqshunoslari Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlar va amalga oshirilgai ishlar solnomasini tuzish bilan cheklanmasdan, o'sha davr ijtimoiysiyosiy va ma'naviy-mafkuraviy muhitini hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarni, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga bo'lgan munosabatini ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e'tibor beradilar.

Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida ijtimoiy hayot nisbatan barqaror va tartibli shaklga ega bo'ldi. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat tizimining barpo etilishi jamiyatdagi turli tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qildi. Jamiyat tarkibida hukmdor sulola, amaldorlar, harbiylar, ulamolar, hunarmandlar, savdogarlar va dehqonlar muhim o'rin egallagan.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Davlat boshqaruvida qat'iy intizom va tartib o'rnatilgan bo'lib, bu jarayonda "Temur tuzuklari" muhim siyosiy-huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan. Mazkur asarda davlat boshqaruvi, harbiy tashkilot, soliqlar va ijtimoiy tartiblar haqida aniq qoidalar belgilab berilgan. Bu esa jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlash va davlat barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan³. Temuriylar davrida ilm-fan ahli va ulamolarga katta hurmat ko'rsatilgan. Ular davlat siyosiy hayotida ham muhim rol o'ynagan. Masjid, madrasa va kutubxonalar atrofida ilmiy muhit shakllangan. Bu jarayon jamiyatning ma'naviy darajasini oshirishga xizmat qilgan⁴.

Temuriylar davrida iqtisodiy hayotning asosini qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo tashkil etgan. Amir Temur mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida sug'orish tizimlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Sug'orish inshootlari, ariqlar va kanallar qurilishi natijasida yangi yerlar o'zlashtirilgan va dehqonchilik rivojlangan. Dehqonchilikda bug'doy, arpa, paxta, uzum va turli mevalar yetishtirilgan. Sug'oriladigan yerlarning kengayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishiga olib kelgan⁵. Hunarmandchilik ham Temuriylar davrida katta rivoj topgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Hirot kabi shaharlar hunarmandchilik markazlariga aylangan. Temur o'z yurishlari davomida turli mamlakatlardan mohir ustalarni Movarounnahrda olib kelgan. Bu esa mahalliy hunarmandchilik an'alarining boyishiga sabab bo'lgan. Metallsozlik, zargarlik, kulolchilik, ipakchilik va to'qimachilik keng rivojlangan⁶.

Savdo aloqalari ham kengayib, Buyuk ipak yo'li orqali Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari rivojlangan. Savdo karvonlari uchun karvonsaroylar, bozorlar va savdo rastalari barpo etilgan. Samarqand xalqaro savdo markazlaridan biriga aylangan⁷.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida madaniy yuksalish davri sifatida alohida o'rin tutadi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Samarqand Amir Temur davrida yirik madaniy markazga aylantirildi. Bu yerda ko'plab masjid, madrasa, saroy va bog'lar barpo etildi. Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi kabi me'moriy obidalar Temuriylar davri me'morchiligining yuksak namunalaridir. Temuriylar davrida ilm-fan ham rivoj topdi. Ayniqsa Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand ilm-fan markaziga aylandi. Ulug'bek tomonidan qurilgan rasadxona o'sha davrning eng ilg'or ilmiy markazlaridan biri hisoblangan. Bu yerda astronomiya va matematika sohasida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan⁸.

Adabiyot sohasida ham katta yutuqlar kuzatilgan. XV asrda yashab ijod qilgan Alisher Navoiy turkiy adabiyot rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning "Xamsa", "Lison ut-tayr",

³ Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.

⁴ Azamat Ziyo. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2000.

⁵ Ahmedov B. Amir Temur tarixi. – Toshkent: Fan, 1996.

⁶ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent, 1996.

⁷ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent, 1994.

⁸ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.



“Mahbub ul-qulub” kabi asarlari nafaqat adabiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Tasviriy san’at sohasida Kamoliddin Behzod maktabi alohida o‘rin egallaydi. Behzod yaratgan miniatyuralar Sharq tasviriy san’atining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi⁹.

Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalish bilan ajralib turadi. Bu davrda markazlashgan davlat boshqaruvi tizimi shakllandi, iqtisodiy hayot mustahkamlandi va shaharlar rivojlandi.

Shuningdek, ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik sohalarida erishilgan yutuqlar Temuriylar davrining jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Temuriylar tomonidan yaratilgan boy madaniy meros bugungi kunda ham Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy va ma’naviy boyligi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
2. Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
3. Azamat Ziyo. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1996.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.
7. Ulug‘bek M. Zij-i jadidi Ko‘ragoniy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1994.
8. Keren L. Amir Temur saltanati. (Fransuz tilidan tarjima). – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 1999.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
10. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2015.

⁹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.

